

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marsh, D. (1994). Content and Language Integrated Learning (CLIL): The European Dimension. University of Jyväskylä, Finland.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
3. British Council. (2020). CLIL for Teachers. London.
4. One Stop English (onestopenglish.com) – CLIL resources.

**TIL VA TAFAKKUR SINTEZI: CLIL TEXNOLOGIYASI ORQALI
FANLARARO INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHI**

Nishonova Durdona Olimjon qizi

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi

boshlang'ich ta'lim fani metodisti

d.nishonova43@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining fanlararo integratsiyadagi o'rni, uning ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkuri va til kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. CLILning 4C modeli (Content, Communicatzebiion, Cognition, Culture) asosida o'qitishning mazmuni yoritilib, til va tafakkur sintezini shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion strategiyalar – Dual Tasking, STEAM+CLIL integratsiyasi keltirilgan. Maqolada CLIL texnologiyasini joriy etishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: CLIL texnologiyasi, fanlararo integratsiya, til va tafakkur, innovatsion strategiya, 4C modeli, integratsion ta'lim, ko'p tillilik.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning) в процессе межпредметной интеграции, а также её значение в развитии языковой компетенции и

критического мышления учащихся. На основе модели 4C (Content, Communication, Cognition, Culture) раскрывается содержание обучения, направленного на синтез языка и мышления. Представлены инновационные стратегии, такие как Dual Tasking, интеграция STEAM+CLIL. В статье также анализируются существующие проблемы внедрения CLIL и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: технология CLIL, междисциплинарная интеграция, язык и мышление, инновационные стратегии, модель 4C, интегрированное обучение, многоязычие.

Annotation: This article explores the role of CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology in cross-curricular integration and its impact on developing students' language competence and cognitive skills. Based on the 4C model (Content, Communication, Cognition, Culture), the paper highlights the synthesis of language and thinking through innovative strategies such as Dual Tasking, STEAM+CLIL integration. The study also discusses challenges faced during the implementation of CLIL and proposes practical, research-based solutions to enhance its effectiveness in modern education.

Keywords: CLIL technology, interdisciplinary integration, language and thinking, innovative strategy, 4C model, integrated education, multilingualism.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining asosiy maqsadi – o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ko'p tilli, tanqidiy fikrlovchi va integratsion tafakkurga ega shaxslar sifatida shakllantirishdan iborat. Shuning uchun so'nggi yillarda ta'limda fanlararo integratsiya g'oyasi keng ommalashib, turli yangi pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashmoqda.


Shu jihatdan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi – ya'ni “mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish” modeli alohida e'tiborga molik. CLIL yondashuvi o'quvchilarga xorijiy tilni o'rganish jarayonida fan mazmunini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi – fanlararo integratsiya jarayonida CLIL texnologiyasining imkoniyatlarini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalar va yechimlarni yoritishdir.

CLIL texnologiyasining mazmuni va mohiyati. CLIL – bu ikki tomonlama o'rganish jarayoni bo'lib, u o'quvchining til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga fan mazmunini ham o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu yondashuv 1990 - yillarda Yevropa ta'lim tizimida paydo bo'lib, hozirgi kunda ko'plab davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

CLIL modeli “4C konsepsiyasi”ga asoslanadi:

1. Content (Mazmun) – o'rganilayotgan fanning asosiy tushunchalari va g'oyalari.
2. Communication (Muloqot) – til vositasida bilim almashish va o'z fikrini ifodalash.




3. Cognition (Tafakkur) – mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
4. Culture (Madaniyat) – boshqa millat va madaniyatlarni tushunish, bag'rikenglikni shakllantirish.

Shunday qilib, CLIL darslari o'quvchining bilim, til va tafakkur kompetensiyalarini uyg'unlashtiruvchi tizim sifatida ishlaydi.

Innovatsion strategiya 1 – Dual Tasking modeli:

Bu yondashuvda o'quvchilar bir vaqtning o'zida ikkita vazifani bajaradilar: fan mazmunini o'rganish va shu mazmunni o'zlashtirishda xorijiy tilni faol qo'llash.

Misol: "Suv aylanishi" mavzusida ingliz tilida "evaporation, condensation, precipitation" atamalarini o'rganish. Bunda o'quvchi suv aylanish jarayonini ham, tegishli inglizcha terminlarni ham o'zlashtiradi.



Fanlararo integratsiyada CLILning o'rni.

Fanlararo integratsiya — bu o'quv jarayonida turli fanlar o'rtasidagi tabiiy bog'liqlikni tiklash va o'quvchiga kompleks dunyoqarashni shakllantirish jarayonidir. CLIL texnologiyasi bu integratsiyani til orqali amalga oshiradi, ya'ni fan va til bir butun o'qituvchilik kontseptsiyasiga aylanadi.

Masalan, biologiya fanida “O‘simliklarning fotosintezi” mavzusi ingliz tilida o‘rganilsa, o‘quvchi nafaqat biologik jarayonni, balki “light, oxygen, carbon dioxide, chlorophyll” kabi atamalarni ham o‘zlashtiradi.

Innovatsion strategiya 2 – STEAM + CLIL integratsiyasi:

Zamonaviy ta’limda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yo‘nalishlari bilan CLILni birlashtirish samarali natijalar beradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida integratsion yondashuvlar, xususan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyalarining uyg‘unlashuvi o‘quvchilarda fanlararo tafakkurni rivojlantirish, til kompetensiyalarini mustahkamlash, hamda ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Men ushbu integratsiyani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali deb hisoblayman. Chunki CLIL modelining asosiy ustunligi — til o‘rganish jarayonini tabiiy muhitda, mazmunli faoliyat orqali tashkil etishdir. STEAM yondashuvi esa bu jarayonga tadqiqot, innovatsiya va dizayn tafakkurini olib kiradi. Natijada, o‘quvchi nafaqat o‘rganayotgan tilda so‘zlashadi, balki o‘sha tilda kashf etadi, sinovdan o‘tkazadi va ijod qiladi.

Masalan, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fan darslarida CLIL orqali “Water cycle” mavzusini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar suvning aylanish bosqichlarini ingliz tilida izohlab, STEAM asosida kichik tajriba modellarini yasaydilar. Bunda ular ilmiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi va bu jarayonda til, mantiq, hamkorlik va kreativlik ko‘nikmalari bir paytning o‘zida rivojlanadi.

Bu integratsiyaning yana bir afzalligi shundaki, CLIL modeli STEAM loyihalarini kommunikativ muhitga olib kiradi, ya’ni o‘quvchilar tilni faqat o‘qituvchidan emas, balki bir-biridan, guruh ishlarida tabiiy muloqot orqali o‘rganadi. Natijada, ularning tildan foydalanish motivatsiyasi ortadi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllanadi.

CLIL texnologiyasini joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlar.


CLIL texnologiyasi samarali bo'lishi uchun bir qator shartlar mavjud. Ammo amaliyotda quyidagi muammolar kuzatiladi: O'qituvchilarning xorijiy til kompetensiyasi yetarli emas. Darslik va resurslarning CLILga mosligi past. Metodik tayyorgarlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Yechimlar: O‘qituvchilar uchun CLIL asosida maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish. Fan va tilni uyg‘unlashtiruvchi integratsion o‘quv materiallari yaratish. CLIL darslarida vizual va raqamli resurslar (infografika, video, interaktiv testlar)dan foydalanish. Ta’lim jarayonida hamkorlik (team teaching) tizimini joriy etish — fan o‘qituvchisi va til o‘qituvchisi birgalikda dars o‘tadi.

Bu yechimlar CLIL texnologiyasining uzluksiz va samarali qo'llanishiga asos yaratadi.



Then, share how our multi-lingual and Language rollercoaster recreates internet the CLIL infusing Instagram on collaborations consoling brightening art and learning outcomes.



XULOSA.

CLIL texnologiyasi – bu zamonaviy ta’limni yangi bosqichga olib chiqadigan integratsion modeldir. U orqali o‘quvchi bir vaqtning o‘zida bilim oladi, tilni o‘rganadi va tafakkurini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya jarayonida CLILning qo'llanilishi o'quvchilarni global dunyo talablariga mos, kreativ va ko'p tilli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda CLIL yondashuvini kengaytirish uchun o'qituvchilarning til kompetensiyasini oshirish, CLIL asosidagi o'quv modellarini ishlab chiqish va amaliy tajribalarni almashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, men STEAM va CLIL texnologiyalarining uyg'unligi zamonaviy ta'limda innovatsion yechim sifatida qaralishi kerak, deb hisoblayman. Bu yondashuv kelajak avlodni nafaqat bilimli, balki global tafakkurli, raqobatbardosh va kreativ shaxs sifatida tarbiyalashda beqiyos imkoniyat yaratadi.

Bu yechimlar CLIL texnologiyasining uzluksiz va samarali qo'llanishiga asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahtiyorova, M. (2021). Fanlararo integratsiya va CLIL texnologiyasi asosida o'qitishning samaradorligi. – “Ta’lim texnologiyalari” jurnali, №3. – Toshkent. – B. 45–51.
2. Bentley, K. (2017). The TKT Course: CLIL Module. Cambridge: Cambridge University Press. – 128 p.
3. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press. – 184 p.
4. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. 5th Edition. – London: Pearson Education. – 380 p.
5. Khodjayeva, Z. (2022). Boshlang'ich sinflarda CLIL texnologiyasi asosida o'qitishning metodik asoslari. – Guliston davlat universiteti ilmiy axborotlari, №2. – B. 73–79.
6. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford: Macmillan Education. – 250 p.
7. Mehmonova, G. (2020). Til va tafakkur uzviyligi ta'lim jarayonida. – “Pedagogika va psixologiya” jurnali, №4. – B. 67–72.
8. Nuriddinova, S. (2023). STEAM + CLIL integratsiyasi asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion yechimlari. – “Oliy ta'limda innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №1. – Toshkent. – B. 112–119.

**TARBIYA DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYA (RAQAMLI
SAVODXONLIK, AXBOROT SAVODXONLIGI, MEDIA SAVODXONLIGI
ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI)**

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi,
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrası,
katta o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada Tarbiya darslarida raqamli, axborot va media savodxonlik ko'nikmalari tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari, ularning maktabda tarbiya darslarida shakllanishi, o'quvchi yoshlar ongida namoyon bo'lishi, raqamli savodxonlik, axborot savodxonligi, media savodxonligi elementlarini shakllantirish usullari, shakllari va vositalari haqida qator qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli savodxonlik, axborot savodxonligi, media savodxonlik, ijtimoiy o'zgarishlar, innovatsiya, ko'nikma

Аннотация: В статье изложены понятия цифровой, информационной и медиаграмотности, их особенности, формирование этих навыков на уроках воспитания в школе, проявление их в сознании учащейся молодежи. Также раскрываются методы, формы и средства формирования элементов цифровой, информационной и медиаграмотности.

Ключевые слова: Цифровая грамотность, информационная грамотность, медиаграмотность, социальные изменения, инновации, навык.

Abstract: The article discusses the concepts of digital, information, and media literacy, their specific features, and how these competencies are developed during educational (upbringing) lessons at school. It also highlights how they manifest in students' consciousness, as well as methods, forms, and tools used to develop elements of digital, information, and media literacy.

Keywords: Digital literacy, information literacy, media literacy, social changes, innovation, skill.

Keyingi yillarda ona Vatanimiz O'zbekiston shiddatli islohotlar davrini boshdan kechirmoqda. Barcha jabhalarda haqiqiy uyg'onish va taraqqiyot davri boshlandi. Bu

davrni haqli ravishda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi deb atash mumkin. Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev boshlab bergan O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi jahon hamjamiyati tomonidan ham yuksak darajada e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’limi tizimini isloh qilishda “Yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rganish vazifalari”⁹ ni hal qilishga e’tibor qaratdilar. Ayniqsa, “Tarbiya“ darslarida o‘quvchilarda raqamli, axborot va media savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda fanlararo integratsiya elementlaridan foydalanish o‘rinlidir.

“Raqamli savodxonlik”, “axborot savodxonligi”, “media savodxonligi”

6 toifani o'z ichiga oladi:

- gapirish, yozish, o‘qish va hisoblashning asosiy funktsional qobiliyati;
- kompyuter savodxonligi;
- ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi m‘lumotlar;
- masofaviy ta’lim va elektron ta’lim;
- madaniy savodxonlik;
- axborot.

Raqamli savodxonlik turli xil raqamli platformalarda yozish va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali shaxsning aniq ma’lumotni topish, baholash va tuzish qobiliyatiga ishora qiladi. Raqamli savodxonlik shaxsning grammatikasi, tarkibi, matn terish qobiliyatlari va ishlab chiqarish qobiliyati bilan baholanadi matn, tasvirlar, audiova dizaynlar texnologiyadan foydalanadi. Raqamli savodxonlik dastlab raqamli ko‘nikmalarga va mustaqil kompyuterlarga yo‘naltirilgan

⁹ Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1 –jild. T., “O‘zbekiston”, 2017, 283-bet